

**ABDULLA QAHHORNING “ANOR” HIKOYASIDA IJTIMOIIY
MUAMMOLARNING AKS ETTIRILISHI****Mirzamaxmudova Muslimaxon Olloyor qizi***Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Tarjima
nazariyasi va amaliyoti fakulteti talabasi**muslima.mirzamaxmudova01@gmail.com*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasi va uning tahlili, davrning dolzarb muammolari va yozuvchining nozik so‘z tanlash uslubi atroflicha yoritilgan. Bu maqola orqali Abdulla Qahhor o‘z hikoyalarida ilgari surgan g‘oyalarni bilib olish mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Satira, hikoyachilik, hikoyanavis, anor, psixologizm, ijtimoiy hayot.*

O‘zbek xalqining atoqli yozuvchisi, Abdulla Qahhor o‘zining achchiq satira ostida yoritilgan qisqa, ammo chuqur mazmunli hikoyalari bilan kitobxonlar ko‘nglidan joy olgan o‘tkir qalam sohibi hisoblanadi. Abdulla Qahhor hikoyalari, asosan, sobiq sovet tuzumi davridagi insonlarning hayot tarzi, ijtimoiy hayotning qanday ahvolda ekanligi haqida hikoya qiladi. Adibning ijod yo‘lidagi deyarli barcha asarlarida hikoya janri alohida o‘rin egallaydi. Abdulla Qahhor hikoyalari shunchaki yozmaydi, balki jamiyatda bo‘layotgan nohaqliklar, odamlar o‘rtasidagi adolatsizliklar, amaldorlarning oddiy va sodda xalqdan qay yo‘sinda foydalanayotganliklari kuchli satira ostida yoritiladi va buning yechimini kitobxon ixtiyoriga topshiriladi. Qahhor har bir qahramonning ichki dunyosini, qo‘rquv, quvonch, nafsoniyat, orzu-umidlarini juda nozik psixologizm bilan tasvirlaydi. Oddiy odamning oddiy holati ham katta badiiy qiymatga ega bo‘lib ketadi. Yozuvchining hikoyalari hayotiy voqealarga asoslangan. U jamiyatdagi muammolarni, inson xarakterini, turmushdagi oddiy, lekin chuqur ma’noga ega holatlarni juda haqqoniy tasvirlaydi. Uning hikoyalari oson o‘qiladi, murakkab iboralar deyarli uchramaydi. Badiiy til sodda, lo‘nda, lekin juda ta’sirli ifodalangan bo‘lib, adib kam so‘z bilan ko‘p ma’no berishga erishgan.

Bundan tashqari, adib epigraflardan ham shunday mohirona foydalanadiki, bu orqali kitobxon asar mazmunini darrov anglab olishi mumkin. Ayni paytda biz tahlil qilmoqchi bo‘lgan “Anor” hikoyasi uchun tanlab olingan epigrafni olaylik: “Uylar to‘la non, och-nahorim bolam, Ariqlar to‘la suv tashnayi-zorim bolam”. Ushbu epigrafdan shuni anglash mumkinki, ocharchilik zamoni emas. Uylarda yeyishga non, ichishga suv bor. Lekin oddiy bir xalq och. Sovet tuzumi paytidagi oddiy xalqning ahvoli shudir. Bu epigrafni har

tomonlama ochib beruvchi izoh esa hikoyaning o‘zida keltirilgan. Mullajon qozining bog‘idan kelgan mushak ovozi. Mullajon qozi o‘z bog‘ida beshikto‘y qilgan. Bunga shahardan to‘ralar ham kelgan. Donasi uch miri bo‘lgan mushakdan qishloqning bir chetidagi amaldor ko‘ngilxushlik uchun uchirib o‘tirsayu, qishloqning boshqa bir chetidagi boshqorong‘i ayol bir oddiy mevaga, anorga zor bo‘lib hali tug‘ilmagan bolasini qarg‘ab, uni ustiga ko‘ngli tusagan bu narsa uchun eridan dashnom eshitib o‘tirsu. Bundan ortiq xorlik bormi bir ayol uchun, oddiy xalq uchun?! Yana bir e‘tibor qilinishi kerak bo‘lgan narsa shundaki, oddiy xalqning ishlab topgan puli ya‘ni oylik maoshi oddiy anor sotib olishgada yetmaydi! Shuning uchun izzat-nafsi toptalgan Turobjon eng yomon illatlardan biri bo‘lgan o‘g‘irlik qilishga majbur bo‘ladi. Shu satrlar orqali ham yozuvchi ijtimoiy tuzum davridagi oddiy xalqning moliyaviy ahvolini ochib bergan.

Shu o‘rinda yana bir jumлага e‘tibor qaratsak, “Nainki men asal olsam! Asal otliqqa yo‘qku, biz hali piyoda bo‘lsak! Xo‘jayinga bir oshnasi sovg‘a qilib kelgan ekan, bildirmasdan... o‘zidan so‘rab ozrog‘ini oldim... O‘zi berdi. Tansiq narsa, xursand bo‘larmikinsan debman. Yo tansiq emasmi? Umringda necha marta asal yegansan? O‘zim umrimda bir marta asal yeganman...” [A.Qahhor, 2012:73] Bu parchadan shuni anglash mumkinki, Turobjon anor o‘rniga asal olib keladi, lekin bu asalni ham o‘z puliga olmaydi. Xo‘jayinga sovg‘a qilingan asaldan ozroq oladi. Aslida bildirmasdan oladi, lekin ayolning oldida izza bo‘lmasligi uchun o‘zi berdi deydi. Adib bu jumlarlar orqali odamlar orasidagi ijtimoiy tengsizlikni ham ifodalab beradi. Ya‘ni, davlat amaldorlariga bazan eng tansiq narsa asal sovg‘a qilinadi, bazan shahardan o‘ziga o‘xshagan amaldorlarni chaqirib, mushak uchirib beshikto‘yi beradi. Oddiy xalq esa och, umrida atigi bir marta asal yegan, anor olishga esa qurbi yetmaydi. Mana xalqning ahvoli qay darajada ekanligi ochiq-oydin ko‘rsatilgan holat!

Xulosa qilib aytish mumkinki, Abdulla Qahhor ana shunday davrda yashadi, shunday sharoitdagi odamlar bilan hamnafas bo‘ldi, ularning dardini, g‘am-anduhlarini o‘z asarlariga joyladi. Ijtimoiy hayotning qay ahvolda ekanligini goh satira bilan, goh yumor bilan o‘zining qisqa, lekin sarmazmun hikoyalari bilan ochib berdi. Abdulla Qahhor asarlaridagi sodda, ammo chuqur ma‘no yuklangan obrazlar orqali u o‘quvchini o‘ylashga, fikrlashga undaydi. Tanqidiy yondashuv vositasida muallif jamiyatdagi muammolarni fosh qiladi, lekin bu fosh etish yo‘q qilish emas, balki tuzatishga, ongli jamiyat sari qadam tashlashga xizmat qiladi. Uning ijodini o‘rganish orqali yoshlar ijtimoiy ong, badiiy tafakkur va insoniylik mezonlarini anglaydi. [I. Mamatova, 2025:67]. Yozuvchi bu asarda anorni nafaqat tabiat ne‘mati, balki insoniylik, e‘tibor va qalb pokligining timsoli sifatida gavdalan tiradi. Shu tariqa, “Anor” hikoyasi insonni ezgulikka, boshqaga mehr bilan qarashga undaydigan, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan badiiy asar sifatida o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin

egallaydi. Asar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, insoniylik va ma’naviy poklik haqidagi o‘g‘itlari bilan o‘quvchini chuqur mulohazaga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qahhor, Abdulla. Anor. Qissa va hikoyalar. – T.: G‘afur G‘ulom, 2012.
2. Boqoyev M. O‘zbek nasrida ijtimoiy-tanqidiy tafakkur. – Samarqand, 2016.
3. Zunnunov Z. Abdulla Qahhor satirasi haqida. // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi, 1981-yil, №14.
4. N Pirnazarova - Modern Science and Research, 2025 - inlibrary.uz
5. G‘ulomov Sh. O‘zbek adabiyotida realizm an’analari. – Toshkent: Fan, 2005.
6. Rasulov S. Abdulla Qahhor hayoti va ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994
7. Mamatova I – Academic research in modern science, 2025 – inlibrary.uz
8. Асадов М. (2020) Альбер Камю ва Хуршид Дўстмухаммад прозасида абсурд қаҳрамон муаммоси/ “Сўз санъати сўзлиги”, 3 жилд, 2 – сон. Тошкент. 2020йил. – Б.117 – 126.